

**ZAXIRIDDIN MUXAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Kimyo kafedrası

Qo'lyozma huquqida

TURSUNOV BOBURJON

**OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARI VA ULARGA DOIR
MASALALAR ISHLASH**

**5140500 – kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini
olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: k.f.n., dotsent Sh.X.Abdullayev

Andijon – 2018

MUNDARIJA

KIRISH	3
1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mazmun-mohiyati.....	7
2. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mavzusini o'qitilishi.....	11
3. Eng muhim oksidlovchi va qaytaruvchilar.....	27
4. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzish.....	32
5. Oksidlanish-qaytarilish reaksiya turlari va ularga doir masalalar.....	37
6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga doir testlar yechish va bilim ko'nikmalarini rivojlantirish.....	40
7. Mustaqil ishlash uchun masalalar.....	67
XULOSA	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	74

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi [1].

Iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shishini, inflyasiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi [2].

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan **2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi**

bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlangan. Ushbu hujjatda asosan quyidagilar bosh vazifa etib belgilangan[1]:

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash.

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat xalqimizning moddiy farovonligini yanada oshirish, aholini kundan-kunga o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bunda ishlab chiqarilayotgan xalq iste'mol mollarining sifatini yaxshilash, ularning turini kengaytirish hamda jaxon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan respublikamizda xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish bo'yicha kun sayin juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari o'rganish kimyo muhim bo'limi hisoblanadi. Bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, masalalar yechish usullarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega [4].

Mavzuning o'rganganlik darajasi: Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari kimyo fanining eng muhim qismi hisoblanadi. Shu bois, bitiruv malakaviy ishi, aynan shu masalalarga oid ilmiy adabiyotlarning ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish, ular bo'yicha muhokama yuritish asosida, ayrim izlanishlar olib borish hamda bu izlanish natijalarini ilmiy manbalarga tayanib tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va uning turlari haqida bilimlarimizni oshirish, mavzuga doir masala va mashqlar ishlab chiqarish va ularning samaradorligini oshirish.

Ishning amaliy ahamiyati: BMI ishi natijalari oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari ahamiyatiga oid ma'lumotlarni to'plash muhim ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari barcha reaksiyalarda sodir bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishining vazafalari:

1. Tanlangan mavzuga doir tegishli adabiyotlarni o'rganish
2. Olingan xulosalar asosida 8-sinf kimyo darsligini tahlil etish
3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mavzusi bo'yicha nazariy bilimlarni oshirish, va takomillashtirish.

4. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari bo'yicha amaliy mazmunga ega bo'lgan masala va mashqlar ishlab chiqish.


5. Ularni pedagogik amaliyot davrida sinovdan o'tkazish va natijalarni umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Ilmiy manbalardagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga oid ma'lumotlar to'planib o'rganildi. 8-sinflar va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mavzusi bo'yicha amaliy mazmunga ega bo'lgan masala va mashqlar ishlab chiqildi, hamda pedagogik amaliyot davrida sinovdan o'tkazilib, dars jarayonida ushbu masalardan foydalanish.


Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ish so'zboshi, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib, 74 sahifani tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishida 7 ta jadval mavjud, 25 ta adabiyotdan foydalanilgan.

1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mazmun-mohiyati



Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari eng ko'p tarqalgan bo'lib, tabiatda va texnikada katta rol o'ynaydi. Ular hayot faoliyatining asosidir. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tirik organizmlar, umuman olganda biosferada katta ahamiyatga ega. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari o'simliklar, hayvonlar barcha tirik organizmlarda ro'y beradigan muhim biologik jarayonlarning eng shiddatli reaksiyalaridan biri hisoblanadi. Ular hayot faoliyatining asosidir. Tirik organizmlarda nafas olish va moddalar almashinishi, chirish va bijg'ish, o'simliklarning yashil qismlaridagi fotosintez shu reaksiyalar bilan bog'liqdir. Bu turdagi reaksiyalarni yoqilg'ilarning yonishida, metallarning karroziyalanish jarayonida va elektrolizda kuzatish mumkin. Metallurgiya jarayonlari va elementlarning tabiatda aylanishi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan. Ularning yordamida ammiak ishqorlar nitrat xlorid va sulfat kislotalar hamda boshqa ko'pgina qimmatli mahsulotlar olinadi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tufayli galvanik elementlar va akkumulyatorlarda kimyoviy energiyaning elektr energiyasiga aylanishi sodir bo'ladi [10]. Biosfera tirik organizmning funksiyasiylarining uchinchisida oksidlanish qaytarilish jarayoni sodir bo'ladi. Bu funksiyada o'zgaruvchan valentlikka ega bo'lgan elementlar – temir, oltingugurt, marganes, azot va boshqa elementlarning aylanishini taminlaydi. Xemasintezlovchi bakteriyalar faoliyati natijasida bu elementlar oksidlanib vodorod sulfid, temir rudasi, xar hil azot oksidlarini xosil qiladi. Bundan tashqari odam organizmida xam tunu-kun sodir bo'lib turadiga moddalar almashinuvi jaroyonlari xam oksidlanish tufayli amalga oshadi. Natijada xosil bo'lgan energiya o'sish va rivojlanishga sarflanadi. Analitik kimyoda keng qo'llaniladigan oksidometriya ham oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan bo'lib, eritmadagi oksidlovchi va qaytaruvchilarning miqdorini hajmiy analiz bilan aniqlash usulidir. Inson hayotining energiya manbai bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining hosil bo'lishida oksidlanish-qaytarilish jarayonlari sodir bo'ladi. [13].




Organizmda mahsulotlarning parchalanishi ham oksidlanish-qaytarilish jarayonlari bilan bog'liq:



Oksidlanish-qaytarilish jarayonlaridan xalq xo'jaligida, kimyo sanoatida, qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda keng foydalaniladi. Xalq xo'jalik iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, masalan rudalardan metallarni ajratib olish ham oksidlanish-qaytarilish jarayonlariga asoslangan: [13].






Kimyoviy analizda, masalan, turli xil oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi glyukoza miqdorini aniqlashda permanganometriya usulidan foydalaniladi.



Oksidometriya farmatsiyada, biologik kimyoda, tibbiy va klinik tekshiruvlarda, masalan, Cu^{2+} , K^+ ionlari konsentratsiyasini, aseton, gidroksinon, antipirin, askorbin kislotani, fermentlardan katalaza peroksidini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarining mohiyati. Juda ko'p kimyoviy reaksiyalarda moddalar tarkibidagi elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradi. Masalan:





Elektronlarning bir atomdan ikkinchi atomga o'tishi natijasida elementlarning oksidlanish darajasi o'zgaradigan reaksiyalar *oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari* deyiladi.

Oddiy moddalarda atomlar elektroneytral bo'lgani uchun ularning oksidlanish darajasi nolga teng deb qabul qilingan.

Neytral atomlar elektron yo'qotishi natijasida musbat zaryadlangan ionga aylanadi va nechta elektron bergan bo'lsa o'shancha musbat oksidlanish darajasi namoyon qiladi.

Zarrachalarning elektron berish jarayoni *oksidlanish* deyiladi.



Masalan:



Atomlar elektron biriktirib olsa manfiy zaryadlangan ionga aylanadi. Bunda atom nechta elektron qabul qilgan bo'lsa uning oksidlanish darajasi shuncha manfiy bo'ladi.


Zarrachaning elektron biriktirib olish jarayoni *qaytarilish* deyiladi.

Masalan:






Elektron bergan zarracha *qaytaruvchi*, elektron biriktirib olgan zarracha esa *oksidlovchi* deb ataladi.

Faqat neytral atomlar emas, balki ionlar ham elektron biriktishi yoki berishi mumkin:



Qaytaruvchi elektron berganligi sababli, uning oksidlanish darajasi qiymati ortadi. Oksidlovchi elektron biriktirib olish tufayli uning oksidlanish darajasi qiymati kamayadi.

Masalan:



Demak, oksidlanish - qaytarilish jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liq bolgan jarayonlardir. qo'llaniladi. [9].

Qutbsiz kovalent bog'lanishli moddalar yani oddiy moddalarda elementning oksidlanish darajasi nolga teng chunki bunda atomlar orasida hosil bo'lgan umumiy juft elektronlar hech qaysi atomga tomon siljimagan.


Masalan; H_2 Cl_2 N_2 S Br_2

Birikmalardagi elementlarning oksidlanish darajalarini topish uchun quyidagi amallarni bajaramiz. Bunda masalan Aluminiy sulfid molekulasidagi atomlarning darajalarini ko'rib chiqaylik;

1. Elektron bergan element (elektrmusbat)ning belgisi avval, elektron olgan element (elektrmanfiy) belgisi keyin yoziladi; Al_2S_3 Demak aluminiy elektron beradi, oltingugurt elektron oladi.

Aluminiy sirtqi energetik qavatida uchta, oltingugurt atomining sirtqi energetik qavatida oltita elektron bor. Oltingugurt atomi aluminiyga nisbatan elektrmanfiy, u tashqi qavatiga ikkita elektron olib -2 oksidlanish darajasini hosil qiladi. Aluminiy atomi esa tashqi energetik qavatidagi uchta elektronni berib +3 oksidlanish darajasini hosil qiladi. Ikkita aluminiy atomi, har biri uchtdan, jami oltita elektron beradi, aluminiy atomlari bergan elektronlarning har bir jufti bittadan oltingugurt Atomlarini biriktiradi: $Al_2^{+3} S_3^{-2}$.

Kimyoviy birikmalarni tashkil etuvchi atomlarning oksidlanish darajalari yigindisi hamisha nolga teng bo'ladi.



Fosfat kislota H_3PO_4 dagi fosforning oksidlanish darajasini aniqlash zarur bo'lsa, quyidagi amallarni bajaramiz.

1. Fosfat kislota eng elektrmanfiy element kislorod.

Kislorod ikkita elektron olib -2 oksidlanish darajasini hosil qiladi. Vodorod +1 oksidlanish darajasiga ega.

$2.H_3^{+1}P^xO_4^{-2}$ fosfat kislotani namoyon qilgan atomlarning oksidlanish darajalarining yig'indisi nolga teng.

$$3(+1)+x+4(-2)=0 \quad 3+x-8=0 \quad x=+8-3=+5$$

Demak, fosforning oksidlanish darajasi +5. $H_3^{+1}P^{+5}O_4^{-2}$

Kimyoviy elementlarning oksidlanish darajalarini aniqlashda quyidagilarni esda saqlash lozim. Oddiy moddalarda atomlarning oksidlanish darajasi nolga teng ($N_2, O_2, Cl_2, O_3, P, S, C, Na, Mg, Al, Fe \dots$).

Metall atomlari xamisha musbat oksidlanish darajasiga ega. Metalmaslardan ftor faqat -1 oksidlanish darajasiga ega. Qolgan metalmaslar ham manfiy, ham oksidlanish darajasini namoyon qiladi. [11].

Masalan: vodorod metallar bilan hosil qilgan gidridlarida -1, qolgan birikmalarda esa +1 oksidlanish darajasini hosil qiladi.

Kislorod atomi esa ftorga electron beradi va +2, qolgan birikmalarda -2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Peroksidlarda esa -1 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Masalan H_2O_2 (Vodorod peroksid).

Asosiy guruhchcha elementlarining yuqori oksidlanish darajasi, shu elementning guruh raqamiga teng; $Na^+ Mg^{+2} Al^{+3} Si^{+4} P^{+5} S^{+6} Cl^{+7}$.

Qo'shimcha guruhchcha elementlarning yuqori oksidlanish darajasi ham guruh raqamiga teng bo'ladi.

Masalan: marganes -Mn VII guruh elementi, shuning uchun marganesni yuqori oksidlanish darajasi +7. [7].

2. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mavzusini o'qitilishi

“Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga doir mavzular 8-sinf maktab kursida 26-29 darslarda 4 soat o'tiladi. Bu mavzu boshqa mavzular bilan uzviy bog'langan bo'lib, oldingi o'tilgan mavzularni to'liq tushunish uchun zamin yaratadi va o'quvchilar o'zlashtira olmagan darslarni qayta o'rganib to'liq tushunishlari uchun yordam beradi. Shu bilan birgalikda keying mavzular uchun o'quvchilarda ma'lum

tushunchalarni shakillantirishga yordam beradi. Bu mavzu mavzular orasidagi uzviy bog`liqlikni ta`minlaydi. Chunki o`quvchilar elementlarning oksidlanish darajasini bilgan xolda ular ishtirokida misol va masalalar ishlashi uchun ular o`rtasida kechadigan reaksiyalarni bilishlari kerak. Shu bilan birgalikda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglash uchun ular o`rtasida kechadigan reaksiyalarni bilish kerak bo`ladi. [6].

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar mavzusi orqali o`quvchilar reaksiya tenglamalarini tuzishni o`rganadilar.

1-jadval

Umumiy o`rta ta`lim maktablari kimyo fanidan 8-sinf-darsligi uchun yillik ish rejasi.

	Mavzular	Dars soati
1	Dastlabki kimyoviy tushuncha va qonunlar	1
2	Mol-modda miqdori, Avogadro qonuni, gazlarning zichligi va nisbiy zichligi, ekvivalentlar qonuni.	1
3	Anorganik birikmalarning asosiy sinflari	1
4	Noorganik birikmalarning asosiy sinflari orasida genetik bog`lanish	1
5	Kimyoviy elementlarning dastlabki toifalanishi	1
6	Kimyoviy elementlarning tabiiy oilalari	1
7	Kimyoviy elementlarning davriy qonuni	1
8	Nazorat ishi-1	1
9	Atom yadro tarkibi	1
10	Izotoplar izobarlar	1
11	Atom elektron qavatlarining tuzilishi	1
12	Energetik pog`onachalar	1
13	Elektronlarning energetik pog`onalarda taqsimlanishi	1
14	Kimyoviy elementlar davriy sistemasi	1
15	Kichik davr elementlarining atom tuzilishi	1

16	Katta davr elementlarining atom tuzilishi	1
17	Elementlarning davriy sistemadagi o'рни va atom tuzilishiga qarab tavsiflash	1
18	Nazorat ishi-2	1
19	Yadro reaksiyalari	1
20	Davriy qonun va davriy jadval, atom tuzilishi bo'yicha masalalar yechish	1
21	Kimyoviy bog'lanishlar. Kimyoviy elementlarning nisbiy elektrmanfiyligi	1
22	Kimyoviy bog'lanish turlari. Qutbli va qutbsiz kovalent bog'lanish	1
23	Donor-akseptor bog'lanish	1
24	Ionli bog'lanish. Kristall panjaralar	1
25	Nazorat ishi-3	1
26	Elementlarning oksidlanish darajasi	1
27	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari	1
28	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzish	1
29	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga oid masalalar yechish	1
30	Elektrolitlar va noelektrolitlar	1
31	Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasi	1
32	Kislota ishqor va tuzlarning dissotsiyalanishi	1
33	Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Dissotsiyalanish darajasi	1
34	Ion almashinish reaksiyalari	1
35	Masalalar ishlash	1
36	Nazorat ishi-4	1
37	Tuzlarning gidrolizi	1
38	Tuzlar gidroliziga turli xil omillarning ta'siri	1
39	O'tilgan mavzular yuzasidan masala va test ishlash	1
40	5-Nazorat ishi	1

41	Metallmaslarga umumiy tariff	1
42	Metallmaslarning kimyoviy elementlar davriy sistemadagi o'rni. Atom tuzilishi	1
43	Metallmaslarning umumiy xossalari	1
44	Galogenlarning davriy sistemadagi o'rni. Atom tuzilishi	1
45	Xlor	1
46	Vodorod xlorid	1
47	Ftor , brom, yod	1
48	1-amaliy mashg'ulot	1
49	Nazorat ishi-6	1
50	Kislorod guruhchasi elementlari	1
51	Oltinugurtning vodorodli birikmalari	1
52	Oltinugurtning kislorodli birikmalari	1
53	Sulfat kislota	1
54	Kimyoviy reaksiyalarning tezligi	1
55	Kimyoviy muvozanat	1
56	Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarish	1
57	2-amaliy mashg'ulot	1
58	Nazorat ishi-7	1
59	Azot guruhchasi	1
60	Azot	1
61	Azotning vodorodli birikmalari	1
62	Azotning kislorodli birikmalari	1
63	Nitrat kislota	1
64	Amaliy mashg'ulot-3	1
65	Fosfor. Fosforning kislorodli birikmalari	1
66	Mineral o'g'itlar	1
67	Asosiy mineral o'g'itlar. Biogen elementlar	1
68	Nazorat ishi-8	1

Dastlab 1-soati o'quvchilarga oksidlanish daraja haqida tushunchalar beriladi, 2-soatda esa oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari to'g'risida umumiy malumotlar beriladi. 3-soatda o'quvchilar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari mavzusini o'zlashtiradilar va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzish to'g'risida tushunchalar yoritib beriladi. 4-soatda olgan bilimlari yuzasidan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga doir masala va testlar yechiladi.

2-jadval

ADTI-qoshidagi Akademik litsey tabiiy fanlar fakulteti 1-bosqich o'quvchilari uchun Umumiy Kimyo fanidan o'quv soatlarining taqsimlanishi.

№	Mavzular	Soati	Izoh		
			Nazariy	Amaliy	Labor/ish
I	U'mumiy kimyo	102	68	6	12
1	Kimyoni aniq fan sifatida rivojlanishi.	2	2		
2	Atomning murakkabligi. Elektron, proton, neytronlar.	2	2		
3	Amaliy mashg'ulot №1	2		2	
4	Atom tuzilishining hozirgi zamon tushunchalari	2	2		
5	Atom yadrosining tuzilishi. Yadro reaksiyalari	2	2		
6	Amaliy mashg'ulot №2	2		2	
7	Atomlarning nisbiy elektromanfiyligi. Kovolent bog'lanish.	2	2		
8	Ion bog'lanishning paydo bo'lishi.	2	2		

2-jadval davomi

9	Amaliy mashg`ulot №3	2		2	
10	Vodorod bog`lanish.	2	2		
11	Gazlar qonuni. Avogadro soni.	2	2		
12	Laboratoriya ishi №1	2			2
13	Suyuq xolatning tafsifi. Gazlarning suyuqlanishi.	2	2		
14	Qattiq xolat va uning tavsifi.	2	2		
15	Amaliy mashg`ulot №4	2		2	
16	Anorganik birikmalarning muxim sinflari. Oksid va kislotalar	2	2		
17	Anorganik birikmalarning muxim sinflari. Asos va tuzlar	2	2		
18	Amaliy mashg`ulot №5	2		2	
19	Massaning saqlanish qonuni	2	2		
20	Karrali nisbatlar qonuni.	2	2		
21	Amaliy mashg`ulot №6	2		2	
22	Dispers sistemalar.	2	2		
23	Eritmalarning konsentratsiyalari	2	2		
24	Laboratoriya ishi №2	2			2

2-jadval davomi

25	Eruvchanlik koeffitsienti va eruvchanlik ko`paytmasi	2	2		
26	Eritmaning xususiyatlari va ulardan foydalanish	2	2		
27	Amaliy mashg`ulot №7	2		2	
28	Kimyoviy termodinamika. Sistema	2	2		
29	Entropiya. Lavauze-Laplas va Gess qonuni	2	2		
30	Amaliy mashg`ulot №8	2		2	
31	Kimyoviy reaksiya tezligi va unga tasir etuvchi omillar.	2	2		
32	Reaksiya tezligiga bosimning tasiri,katalizator ta'siri	2	2		
33	Laboratoriya ishi №3	2			2
34	Kimyoviy muvozanat va unga ta'sir etuvchi omillar.	2	2		
35	Muvozanatga bosim va temperaturani tasiri.	2	2		
36	Amaliy mashg`ulot №9	2		2	
37	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.Oksidlovchi va qaytaruvchilar.Elektron balans usuli	2	2		

2-jadval davomi

38	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga eritma muhitining ta'siri.	2	2		
39	Amaliy mashg'ulot №10	2		2	
40	Elektrolitik dissotsillanish,dissotsilanish darajasi va mehanizmi.Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.	2	2		
41	Elektrolit eritmalarda boradigan reaksiyalar.	2	2		
42	Laboratoriya ishi №4	2			2
43	Suvning dissotsilanishi.Vodorod ko'rsatkich.	2	2		
44	Tuzlarning gidrolizi.	2	2		
45	Laboratoriya ishi №5	2			2
46	Elektroliz.Elektrolizning amaliy ahamiyati.	2	2		
47	Faradeyning birinchi va ikkinchi qonunlari	2	2		
48	Amaliy mashg'uot №11	2		2	
49	Korroziya va uning turlari.	2	2		
50	Galvanik elementlar.Amaliy ahamiyati.	2	2		
51	Laboratoriya ishi №6	2			2

Kasb-hunar kollejlarda kimyo fanidan o'quv soatlarning taqsimlanishi

№	Mavzular	Soati	Izoh		
			Nazariy	Amaliy	Labor/ish
<i>I</i>	<i>U'mumiy kimyo</i>	22	14	4	4
1	Atom tuzilishi	4	4	2	
2	Kimyoviy reaksiyalar va kimyoviy bog'lanish turlari	4	2	2	
3	Dispers sistemalar	2	2		
4	Gidroliz jarayoni va ion almashinish reaksiyalari	6	2	2	2
5	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar turlari	4	4		
6	Kimyoviy reaksiyalar kinetikasi	2	2		
<i>II</i>	<i>Organik kimyo</i>	58	44	2	12
7	Organik kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari	8	6	2	
8	Organik birikmalar reaksiyalari	2	2		
9	Uglevodorodlar va ularning sinflanishi	14	10		4
10	Uglevodorodlarning tabiiy manbalari	2	2		
11	Kislородli organik birikmalar	12	8		4

12	Uglevodlar	4	2		
13	Azotli organik birikmalar	4	4		
14	Oqsillarning turlari va xossalari	4	2		
15	Geterosiklik birikmalar	2	2		
16	Nuklein kislotalar	2	2		
17	Yuqori molekulyar birikmalar. Polimerlar	2	2		
18	O'zbekistonda kimyo fani va kimyo sanoatining rivojlanishi	2	2		
		80	58	6	16
	Mustaqil ish	34			
	Jami soatlar	114			

Mavzuni o`qitishda qo`llaniladigan didaktik

Blits-so'rov" usuli

Usulning tavsifi: Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-krtligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan ham fikr bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- O'qituvchi o'quvchilarga ushbu mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga moljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, o'quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi. [14].

- Keyin hammaga alohida-alohida tarqatma material beradi va ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi va **"o'quvchining ismi va familiyasi"** va **"sinfi"** bo'limlarini to'ldirishni aytadi.

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta'kidlaydi;

- har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi **"o'quvchi javobi"** bo'limiga berilgan savollardan 3xil variantli javobdan bittasini yozadi, javoblar raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilishi mumkin.

- berilgan vaqt ichida yakka tartibdagi ishlar tugagach tarqatma materiallar o'zaro almashinadi.(almashtirishni turlicha tashkil qilish mumkin, masalan yonidagi o'quvchi bilan , kichik guruhlarda yoki orqadagi o'quvch bilan)

- tarqatma materiallar almashingach, oqituvchi to'g'ri javoblarni o'qiy boshlaydi, oquvchilar bir-birini ishini tekshira boshlaydi va **"to'g'ri javob"** bo'limiga "1" balldan, agar noto'g'ri bo'lsa "0" ball qo'yib chiqishadi.

- o'qituvchi baholash mezonini tushuntirib beradi va tarqatma materiallar qaytadan o'z egalariga almashtirilishi so'raydi,o'z xatolarini ko'rib olishlariga imkon beradi.

- o'qituvchi tarqatma materiallarni yig'shtirib olib baholaydi va e'lon qiladi.

Izoh: misol tariqasida "oksidlanish-qaytarilish reaksiyalri" mavzusidagi blits-so'rov jadvalini keltirish mumkin(har bir o'qituvchi o'z pretmeti bo'yicha o'tayotgan, avval o'tgan mavzu yoki umumlashtiruvchi darslarda usbu jadvaldan foydalanib blits-so'rov tuzishi mumkin).

4-jadval

O'quvchining ism, familiyasi _____				Sini:" ", mavzu: Metallar		
№	Savol	A	B	C	O'quvchi javobi	To'g'ri javob
1	Reaksiyalar oksidlanish darajasiga o'zgarishiga qarab necha xil bo'ladi	2	3	4		
2	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari necha xil bo'ladi	4	5	6		
3	Reaksiyalarda elektron olgan element nima deyiladi.	Oksidlovchi	qaytaruvchi	Oksidlovchi-qaytaruvchi		
4	Reaksiyalarda elektron bergan element nima deyiladi.	Oksidlovchi	qaytaruvchi	Oksidlovchi-qaytaruvchi		
5	$S^{-2} \rightarrow S^{+4}$ nechta elektron beradi	6	8	4		

“Klaster”

Klaster — Cluster — ingliz tilida shajara degan ma'noni anglatadi. Ushbu lokal texnologiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan va o'zlashtiradigan g'oya, nazariya, qonuniyat hamda tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. [6].


Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- kimyo kursi mazmunidagi muayyan g'oya doska yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi;
- ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma'lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi;
- avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi.

Klasterdan foydalaniladigan darslarda o'quvchilar teng sonli kichik guruhlarga ajratilib, ularga o'quv topshirig'ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so'ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o'zlari tuzgan Klasterni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va asosli tuzilgan Klaster aniqlanadi, g'oliblar rag'batlantiriladi. Klasterni bitta mavzu yoki bob bo'yicha yaxlit holda tuzish o'quvchilarning tizimli fikr yuritishiga zamin yaratadi. Klasterning asosidan asosiy g'oya yoki tushuncha o'rin oladi

O`tkazish tartibi: har bir guruhga (agar o`quvchilar guruhlarga ajratilgan bo`lsa) o`quvchilarga A4 formatdagi qo`gozga o`rtasiga asosiy tushuncha yozilgan va undan bir nechta strelkalar chiqarilib ularga tegishli ma`lumotlar keltirilgan va bu klasterni davom ettirish vazifa qilib beriladi. (vaqt belgilanib qo`yiladi.) o`quvchilar yozgan ma`lumotlarni guruxdan bir kishi chiqib ximoya qiladi. Agar xatoliklar bo`lsa buni o`qituvchi to`g'rilaydi va har bir to`g'ri javob uchun “1 ball” beriladi. [6].

Misol uchun “oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari” mavzusida quydagicha ko`rinishda bo`ladi.



Shu tartibda jadvalni to'ldirish yoki uni davom ettirish mumkin.

Dars turi: noan'anaviy

Dars metodi:

Kichik guruhlar bilan ishlash, “Musiqali esda qoldirish”, “Blits so'rov”, Klaster, savol-javob.

Dars jihozi: Kartochkalar, tarqatma materiallar, sxemalar, jadvallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: (4 daqiqa)

a) salomlashish

b) davomadni aniqlash

c) siyosiy xabarlar bilan tanishiladi.

II. O‘tilgan mavzuni qisqacha takrorlash.(8 daqiqa)

Bunda “Musiqali esda saqlash “ o‘yinidan foydalanamiz.


O‘qituvchi partasi yoniga doira shaklda stullar joylashtiriladi. Stul ustiga A-4 formatdagi qog‘ozga elementlarni oksidlanish darajalari yozilgan bo‘ladi.Ularni teskarisini qilib stulga qo‘yamiz. O‘yin tartibi shunday: Doskaga 5-6 ta o‘quvchilar chiqadilar va shundan so‘ng musiqa yangraydi, ohanga mos harakatlar bilan aylanadilar. Musiqa to‘htashi bilan o‘quvchilar to‘xtab,stuldagi qog‘ozlarni qo‘llariga olib tezlik yozilgan elementlarning oksidlanish darajasiga misol aytadilar, ayta olmagan o‘quvchi o‘yinni tark etadi, o‘yin shu tarzda davom etadi. Oxirida qolgan ikki yoki uch o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

III.Asosiy qism (20 daqiqa)



Yangi mavzu bayoni:

Kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etayotgan moddalar tarkibiga kiruvchi atomlar oksidlanish darajalarining o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligiga qarab kimyoviy reaksiyalar ikkiga bo‘linadi.

Mis (II)-oksidning sulfat kislota bilan o‘zaro tasiri:





Reaksiyada ishtirok etayotgan moddalar tarkibiga kiruvchi atomlarning oksidlanish darajalari reaksiyadan avval qanday bo‘lsa, reaksiyadan keyin ham bir xil.



Bunday kimyoviy reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga mansub emas.


Natriyning xlor bilan reaksiyasi.



Bu reaksiyada natriy atomlari o‘zining tashqi energetik qavatidagi valent elektronlarini xlor atomlariga beradi. Reaksiya natijasida natriy atomlari 1 ta

elektron berib, +1 oksidlanish darajasini xosil qiladi, xlor atomlari esa elektron qabul qilib -1 oksidlanish darajasiga o'tib qoladi. [18].

Kislorod metallar, metallmaslar va murakkab moddalar bilan reaksiyaga kirishganda tashqi energetic qavatini 8 ta elektronli tugallangan qavatga o'tkazishi uchun 2 ta elektron qabul qilib olib -2 oksidlanish darajasini xosil qiladi.




Elementlarning oksidlanish darajasi o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalarga oksidlanish-qaytarilish reaksiylari deyiladi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiylarida elektron olgan element yoki ion oksidlovchi, elektron bergan elementi ion qaytaruvchi deb ataladi.

Oksidlovchi ayni kimyoviy jarayonda elektron olib qaytariladi. Qaytaruvchi ayni kimyoviy jarayonda elektron berib oksidlanadi

Kimyoviy jarayonlarda elementlarning olgan yoki bergan elektronlari soniga qarab oksidlanish darajalari o'zgaradi. [12].

Elementlarning oksidlanish darajalarining o'zgarishi



Elementning oksidlanish darajasi -3 dan +5 ga o'tsa: 1) 8 ta elektron beradi; 2) qaytaruvchi bo'ladi; 3) oksidlanadi;

Elementning oksidlanish darajasi +4 dan -2 ga o`tsa: 1) oltita elektron oladi
2) oksidlovchi bo`ladi; 3) qaytariladi.

Mustahkamlash qismida klaster va bilts so`rovidan foydalanamiz. Duskada uchta o`quvchi klaster usulida qolgan o`quvchilar esa bilts so`rovlariga javob yozishadi.

3. Eng muhim oksidlovchi va qaytaruvchilar.

Tarkibida qaytariluvchi element bo`lgan moddalar *oksidlovchilar*, tarkibida oksidlovchi bo`lgan moddalar *qaytaruvchilar* deyiladi.

Oksidlovchilar tarkibidagi element o`z oksidlanish darajasini pasaytiradi, qaytaruvchilar tarkibidagi element o`z oksidlanish darajasini oshiradi.

Qaytaruvchi va oksidlovchilar oddiy moddalar, ya`ni bitta elementdan tarkib topgan bo`lishi ham, murakkab moddalar bo`lishi ham mumkin.

Elementlar davriy sistemasida joylashgan o`rniga muvofiq ko`pchili metallarning tashqi energetik pog`onasida 1-2 ta elektron bo`ladi. Shu sababli ular kimyoviy reaksiyalarda valent elektronlarni beradi, ya`ni oksidlanadi. Metallarda qaytaruvchanlik xossalari bor. [10].

Davrlarda elementning tartib nomeri ortishi bilan oddiy moddalarning qaytaruvchilik xossalari susayadi, oksidlovchilik xossalari esa kuchayadi va galogenlarda maksimal darajaga yetadi. Masalan: 3-davrda natriy davridagi eng aktiv qaytaruvchi xlor esa eng aktiv qaytaruvchi.

Bosh gruppachalarning elementlarida tartib nomeri ortishi bilan qaytaruvchilik xossalari kuchayadi va oksidlovchilik xossalari kamayadi. Eng yaxshi qaytaruvchilar- ishqoriy metallar ulardan eng aktivlari Fr bilan Cs. Eng yaxshi oksidlovchilar – galogenlar. IV –VII gruppachalaridagi elementlar (metallar) elektronlar berishi xam, biriktirib olishi ham mumkin va qaytaruvchilik xossalarini xam, oksidlovchilik xossalarini xam nomoyon qiladi. Ftor bundan mustasno. U faqat oksidlovchilik xossalarini nomoyon qiladi, chunki nisbiy elektromanfiyligi eng kattadir.

Yonaki gruppachalardagi elementlar (katta davrlarning juft qatorlaridagi) metall xossalariga ega bo`ladi, chunki ular atomlarining tashqi pog`onasida 1-2

elektron bor. Shu sababli ularning oddiy moddalari qaytaruvchilardir. Shunday qilib qaytaruvchilar sifatida taʼsir etadigan oddiy moddalardan – metallardan farq qilib, oddiy moddalar – metallmaslar oksidlovchilar sifatida xam qaytaruvchilar sifatida xam namoyon boʻlishi mumkin.

Murakkab moddalarning oksidlovchilik yoki qaytaruvchilik xossalari shu element atomining oksidlanish darajasiga bogʻliq. Masalan , KMnO_4 , MnO_2 MnSO_4 . Birinchi birikmada marganets maksimal oksidlanish darajasiga ega va u koʻpayishi mumkin emas. U faqat elektronlar biriktirib olishi mumkin, demak, KMnO_4 faqat oksidlovchi boʻla oladi uchinchi birikmada marganetsning oksidlanish darajasi eng past – u faqat qaytaruvchi boʻlishi mumkin. Ikkinchi birikmada marganets oraliq oksidlanish darajasiga ega (+4), shuning uchun uqaytaruvchi ham oksidlovchi xam boʻla oladi; bu raksiyaning boorish shart sharoitlariga va MnO_2 qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishayotganiga bogʻliq.

Tarkibida yuqori oksidlanish darajasiga ega boʻlgan ega boʻlgan atomlari bor murakkab anionlar ham oksidlovchilar xisoblanadi. $\text{N}^{+5}\text{O}_3^-$, $\text{Mn}^{+7}\text{O}_4^-$, $\text{Cr}_2^{+6}\text{O}_7^{2-}$, $\text{Cl}^{+5}\text{O}_3^-$, $\text{Cl}^{+7}\text{O}_4^-$ va boshqalar. Oksidlovchilik xossalari yuqori oksidlanish darajasiga ega boʻlgan atom tufayli emas balki butun anion tufaylidir, masalan, Mn^{+7} ioni emas, balki butun anion MnO_4^- tufaylidir. Elementar anionlar faqat qaytaruvchilik xossalarini nomoyon qiladi. Masalan, F^- , Cl^- , Br^- , I^- , S^{2-} va boshqalar.

Muhim oksidlovchilar:

1. Oddiy moddalar (davriy jadvalning oʻng yuqori qismidagi metallmaslar): F_2 , Cl_2 , Br_2 , I_2 , O_2 , S .

Kimyoviy reaksiyada bu moddalar elektronlar biriktirib olib, manfiy zaryadlangan zarrachalarni hosil qiladi:



2. Kislorodli kislotalar (H_2SO_4 , HNO_3 va boshqalar) va ularning tuzlari: KMnO_4 (kaliy permanganat), $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ (kaliy bixromat); xlorning kislorodli kislotalari (HClO , HClO_3 , HClO_4) va ularning tuzlari (gipoxloritlar, xloratlar va perxloratlar); baʼzi kislotalarning angidridlari, masalan, CrO_3 (xrom (VI) - oksid),

Mn_2O_7 (marganes (VII)- oksid), O_3 (ozon), H_2O_2 (vodorod peroksid), metallarning peroksidlari (Na_2O_2 , CaO_2) va boshqalar. [11].

3. Metallarning yuqori oksidlanish darajasiga ega bo'lgan ionlari, masalan Fe^{3+} , Au^{3+} , Cu^{2+} , Sn^{4+} .

Muhim qaytaruvchilar:

1. Metallar, ayniqsa ishqoriy metallar (Li, Na, K va boshqalar) va ishqoriy-yer metallari (Ca, Sr, Ba) .

2. Vodorod , uglerod (koks), uglerod (II) oksid (CO).

3. Kislordsiz kislotalar va ularning tuzlari: tarkibidagi vodorod ioni H^- bo'lgan gidridlar (NaH , KH , CaH_2 va boshqalar).

Ba'zi moddalar sharoitga qarab ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi vazifasini bajarishi mumkin (masalan, HNO_2 , H_2SO_3).

6-jadval

Eng muhim qaytaruvchi va oksidlovchilar

Qaytaruvchilar	Oksidlovchilar
<p>Metallar, vodorod, ko`mir, uglerod (II) oksid CO</p> <p>Vodorod sulfid H₂S, oltingugurt (IV) oksid SO₂, Sulfit kislota H₂SO₃ va uning tuzlari.</p> <p>Yodid kislota HI, bromid kislota HBr, xlorid kislota HCl.</p> <p>Qalay (II) xlorid SnCl₂, Temir (II) sulfat FeSO₄ marganes (II) sulfat MnSO₄, Xrom (III) sulfat Cr₂(SO₄)₃, nitrit kislota HNO₂, amiak NH₃ gidrozin N₂H₄, azot (II) oksid NO.</p> <p>Fosfit kislota H₃PO₃, Aldegidlar, spirtlar, chumoli va sirka kislotalar, glukoza.</p>	<p>Galogenlar,</p> <p>Kaliy permanganat KMnO₄, Kaliy manganat K₂MnO₄, Marganes (IV) oksid MnO₂, Kaliy dixromat K₂Cr₂O₇, Natriy xromat Na₂CrO₄.</p> <p>Nitrat kislota HNO₃, kislorod O₂ Ozon O₃, vodorod peroksid H₂O₂, sulfat kislota H₂SO₄(konsentrlangan), selenat kislota H₂SeO₄, mis (II) oksid CuO, kumush (I) oksid Ag₂O, qo`rg`oshin (IV) oksid PbO₂.</p> <p>Nodir metallrning ionlari (Ag Au³⁺ va boshqalar).</p> <p>Temir (III) xlorid FeCl₃, gipoxloridlar, xloratlar va perxloratlar.</p> <p>Zar suvi konsentrlangan nitrat va ftorid kislotalarning aralashmasi.</p>

7-jadval

Eng ko`p qo`llaniladigan qaytaruvchi va oksidlovchilar va ularning reaksiya mahsulotlari.

Oksidlovchilar	Qaytaruvchilar
Galogenlar va ularning birikmalari	Vodorodgalogenidlar
F ₂ → 2HF	2HJ → J ₂
Cl ₂ → 2HCl	2HBr → Br ₂
Br ₂ → 2HBr	2HCl → Cl ₂

$J_2 \rightarrow 2HJ$	
<p>Sulfatlar va sulfitlar</p> $H_2SO_4 \rightarrow SO_2$ $H_2SO_4 \rightarrow H_2S$ $H_2SO_4 \rightarrow S$ $Na_2SO_3 \rightarrow S$	<p>Sulfidlar va sulfitlar</p> $H_2S \rightarrow S$ $SO_2 \rightarrow SO_3$ $Na_2SO_3 \rightarrow Na_2SO_4$ $S \rightarrow SO_2$
<p>Nitratlar va nitritlar</p> $HNO_3 \rightarrow NO_2$ $HNO_3 \rightarrow N_2O$ $HNO_3 \rightarrow NO$ $KNO_2 \rightarrow NO$ $HNO_3 \rightarrow NH_4NO_3$	<p>Ammiak, azot va nitritlar</p> $NH_3 \rightarrow N_2$ $N_2 \rightarrow NO$ $KNO_2 \rightarrow KNO_3$
<p>Permanganatlar va Mn^{+4} birikmasi</p> $KMnO_4 \rightarrow MnSO_4$ (kislotali) $KMnO_4 \rightarrow MnO_2$ (neytral) $KMnO_4 \rightarrow K_2MnO_4$ (ishqoriy) $MnO_2 \rightarrow MnSO_4$	<p>Mn^{+2}, Mn^{4+} va Mn^{+6} birikmalari</p> $MnSO_4 \rightarrow MnO_2$; $MnSO_4 \rightarrow K_2MnO_4$ $MnSO_4 \rightarrow KMnO_4$ $MnO_2 \rightarrow KMnO_4$ (kislotali) $MnO_2 \rightarrow K_2MnO_4$ (ishqoriy) $K_2MnO_4 \rightarrow KMnO_4$
<p>Xromatlar va dixromatlar</p> $K_2Cr_2O_7 \rightarrow Cr_2(SO_4)_3$ kucli kislotali (H_2SO_4)	<p>Cr^{3+} birikmalari</p> $CrCl_3$ (ishqoriy) \rightarrow K_2CrO_4
<p>Pb^{+4} birikmalari</p> $Pb^{4+} \rightarrow Pb^{2+}$	<p>Pb^{2+} birikmalari</p> $Pb^{2+} \rightarrow Pb^{4+}$
<p>As^{+5} birikmalari</p> $AsO_4^{3-} \rightarrow AsO_3^{3-}$	<p>As^{+3} birikmalari</p> $As_2S_3 \rightarrow H_3AsO_4 + H_2SO_4$

4. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini tuzish.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida elektronlar qaytaruvchidan oksidlovchiga o'tadi. Bunda qaytaruvchi bergan elektronlarning umumiy soni oksidlovchi qabul qilgan elektronlarning umumiy soniga teng bo'lishi shart.


Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tenglamalarini ikki usulda tuzish mumkin.

1. *Elektron balans usuli.*
2. *Yarim reaksiyalar (ion elektron) usuli.*


1-usul. Elektron balans usulida boshlang'ich va oxirgi moddalardagi atomlarning oksidlanish darajalari taqqoslanadi. U qaytaruvchi bergan elektronlar soni oksidlovchi biriktirib olgan elektronlar soniga teng bo'lishi kerak, degan qoidaga asoslanadi. Tenglama tuzish uchun reaksiyaga kirishayotgan moddalar va maxsulotlarining formulalarini bilish kerak reaksiya maxsulotlarini formulalarini tajriba yoli bilan yoki elementlarning ma'lum xossalari asosida aniqlanadi. Bu metodning qo'llanilishini misollar bilan ko'rib chiqamiz. [9].

Quyida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzishning elektron balans usulini *Al* bilan *CuCl₂* orasidagi reaksiyani tenglashtirish misolida ko'rib chiqamiz.

1. Reaksiya sxemasini (koeffisientlarsiz) tuzamiz.





2. Har qaysi modda formulasida elementlarning oksidlanish darajasi o'zgarganini aniqlaymiz, shu yo'l bilan qaysi modda oksidlovchi va qaysi modda qaytaruvchi ekanligini aniqlab olamiz:




Reaksiya sxemasidan ko'rinib turibdiki, *Al* ning oksidlanish darajasi 0 dan +3 gacha ortdi. *Cu* ning oksidlanish darajasi esa +2 dan 0 gacha kamaydi. Demak, *Al* qaytaruvchi, chunki *Al* atomi elektron berdi. *CuCl₂* esa oksidlovchidir, chunki *Cu⁺²* ioni elektron biriktirib oldi.


3. Oksidlanish va qaytarish jarayonlarini ifodalaydigan elektron tenglamalar tuzamiz:




Eng kichik ko'paytuvchi qoidasiga ko'ra oksidlovchi hamda qaytaruvchi shu bilan birga reaksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar uchun koeffitsiyent tanlaymiz, bunda qaytaruvchi yo'qotgan elektronlar soni oksidlovchi qabul qilgan elektronlar soniga teng bo'lishi lozimligini nazarda tutamiz. Masalan:




Oksidlovchi va qaytaruvchi so'ngra reaksiyaga kirishuvchi boshqa moddalar oldiga qo'yiladigan koeffitsientlarni aniqlaymiz elektron formuladan ko'rinib turibdiki 2 mol alyuminiy va 3 mol mis (II) xlorid olishimiz kerak. Shunda 3 mol mis va 2 mol aluminiy xlorid olinadi. Topilgan koeffitsiyentlarini tegishli moddalar formulalari oldiga qo'yib, sxemadan reaksiya tenglamasiga o'tamiz:



Tenglama to'g'ri yozilganini bitta element atomlarini sanash orqali aniqlaymiz, masalan xlor atomlarini. Reaksiyaning chap tarafida $3 \cdot 2 = 6$ ta xlor atomlari va o'ng qismida $2 \cdot 3 = 6$ ta xlor atomlari bor, demak, reaksiya to'g'ri tenglangan. [16].




1. Avvalo oksidlanish darajalari o'zgargan atomlar aniqlanadi:




Reaksiyadagi Mn ning oksidlanish darajasi +7 dan +2 ga, S ning oksidlanish darajasi +4 dan +6 ga o'zgardi.

2. Oksidlanish-qaytarilish tenglamasi tuziladi:



Qabul qilingan va berilgan elektronlarni balans qilish uchun sxema quyidagicha ko`chirib yoziladi:




topilgan koeffitsientlar qo`yiladi:





3. Reaksiyada ishtirok etayotgan boshqa birikmalarning koeffitsientlarini topishda tenglamaning o`ng va chap tomonlarini bir biri bilan taqqoslab chiqamiz.



Agar biror modda molekulasidagi ikki element atomlari qaytaruvchilik xossalari nomoyon qilsa, u xolda balans chiqarishda qaytaruvchi tarkibidagi barcha atomlar yo`qotgan elektronlar yig`indisi xisoblanadi. Masalan:



Oksidlanish-qaytarilish sxemasini tuzamiz:





2-usul. Elektron ionli (yarim reaksiyalar) usuli.


Bu usul ion yoki molekularlarning reaksiyada qanday o'zgarishlarga uchrashini ko'rsatuvchi ionli tenglamalar (yarim reaksiyalar tenglamalari)ni tuzish va bu tenglamalarni bitta molekulyar oksidlanish-qaytarilish tenglamasiga birlashtirishdan iborat. Quyidagi reaksiyaga elektron-ionli usul yordamida koeffitsientlar tanlashni ko'rib chiqamiz:




Bu reaksiyada bromid va permanganat ionlari o'zgarishga uchraydi:




Bromid ionining oksidlanish va permanganat ionining qaytarilish yarim reaksiyalari tenglamalari tuziladi. 1 mol Br_2 ning 2 mol Br^- iondan hosil bo'lishini hisobga olib, birinchi yarim reaksiyaning tenglamasi (bromid ionining oksidlanishi) yoziladi:



1 mol MnO_4^- ionning 1 mol MnO_2 ga qaytarilishida 2 mol atomar kislorod 2 mol suv bilan (neytral muhitda) bog'lanib, 4 mol OH^- ionlarni hosil qiladi. Zaryadlar tengligini hisobga olib, ikkinchi yarim reaksiya (permanganat ionining qaytarilishi) tenglamasi yoziladi : [15].



Berilgan va birlashtirilgan elektronlar soni teng bo'lganligiga qarab eng kichik umumiy bo'linuvchi topiladi. Bu bo'linuvchi 6 ga teng bo'lganligi uchun qaytaruvchining yarim reaksiyasidagi ion, molekula va elektronlar 3 koeffitsiyentga ko'paytiriladi va oksidlovchining yarim reaksiyalarini ham 2 koeffitsientga ko'paytirib, qaytaruvchi yarim reaksiyalarining chap va o'ng qismlari qo'shiladi :





Reaksiyada o'zgaray qoladigan kaliy va natriy kationlarini hisobga olgan holda oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining molekulyar tenglamasi yoziladi :






Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga muhitning ta'siri.




Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida eritma muhiti muhim ahamiyatga ega. Muhitning ta'siri masalan, $KMnO_4$ ning qaytarilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Kislotali muhitda MnO_4^- ion Mn^{2+} iongacha, neytral muhitda MnO_2 gacha, ishqoriy muhitda MnO_4^{2-} (yashil rang) iongacha qaytariladi. $KMnO_4$ ning kislotali muhitda qaytarilishi: [9].



$KMnO_4$ ning neytral muhitda qaytarilishi :



Kaliy permanganatning ishqoriy muhitda qaytarilishi :



5. Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarining turlari va ularga doir masalalar.

Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarining quyidagi turlari ma'lum.


1. Molekulalararo oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari.
2. Ichki molekulyar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.
3. Disproporsiyalanish reaksiyalari.
4. Sinproporsiyalanish reaksiyalari.

Molekulalararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida oksidlanish darajasi o'zgaradigan element atomlari turli moddalar molekulari tarkibiga kiradi: [22].


Masalan:



Qaytaruvchi Cu, oksidlovchi S bo'lsa H₂SO₄ tarkibiga kirgan.







Molekulalararo oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari.




Umuman olganda molekulararo oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga birikish reaksiyalarini misol qilib aytishimiz mumkin.

Ichki molekular oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari-bunday reaksiyalarda yagona modda tarkibida ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi modda bo'lib, reaksiya shu zarrachalar orasida sodir bo'ladi. Masalan: [24].




Bunday reaksiyalarda elektron amashinish jarayoni bir molekulaning o'zidagi zarrachalar orasida sodir bo'ladi.

Disproporsiyalanish yoki o'z-o'zidan oksidlanish –qaytarilish reaksiyalarida bitta element atomlarining o'zi ham oksidlovchi va ham qaytaruvchi bo'ladi. Molekula tarkibidagi bir xil element atomining oksidlanish darajasi ham ortadi, ham kamayadi. Yani bir element o'zining oraliq oksidlanish darajasidan ikki xil-biri yuqoriroq, ikkinchisi kichikroq oksidlanish darajasi holatiga o'tishi kuzatiladi. Masalan:





Vodorod peroksid tarkibidagi kislorod atomi oksidlanish darajasi -1 holatdan nolga qadar ko'tarildi (qaytarildi), ikkinchisida esa, oksidlanish darajasi -2 ga qadar pasaydi (oksidlandi). Bunday reaksiyalarda qatnashadigan moddalardagi elementning oksidlanish darajasi shu elementga xos bo'lgan oksidlanish darajalarning oraliq xolatidan birida bo'lishi kerak. Yana bir necha misollar keltiramiz: [13].






Sinproporsiya reaksiyalari-bitta molekulada bir elementning turli xil oksidlanish darajasidagi atomlari reaksiya natijasida bir xil oksidlanish darajadagi birikmalarga aylanishi sinproporsiya reaksiyalariga xosdir.

Masalan:



Oksidlanish-qaytarilish reaksiya turlariga doir masalalar.



Ushbu reaksiya tenglamasida o'ng tomondagi koeffitsientlar yig'indisini chap tomondagi koeffitsientlar yig'indisiga nisbatini aniqlang. J;8;7




Ushbu oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida nitrat kislota bilan tasirlashuvdagi nitrat kislota oldidagi koeffitsientga teng. Agar xlorid va nitrat kislotalarning mol nisbati mos ravishda 1;2 bo'lsa reaksiyaga kirishgan X moddani toping. J;Crcl₂

3. Reaksiya tenglamasidagi barcha koeffitsientlar yig'indisini aniqlang.



4. Turnbul ko'ki hosil bo'lishi reaksiyasining qisqa ionli tenglamasida koeffitsientlar yig'indisi nechaga teng? J;6




Ushbu oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 150 gr 64.4% li MeSO₄ eritmasi 1.5 F tok kuchi bilan elektroliz qilindi, bunda tarkibida 10.85 mol atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Katodda ajralgan metall massasini (g) aniqlang. J;39

6. Bertole tuzi (KClO₃) qizdirilganda uning parchalanishi ikki xil yo'nalishda boradi; a) kislorod va kaliy xlorid xosil bo'ladi; b) K ClO₄ va kaliy xlorid xosil

bo'ladi. 49 gr $KClO_3$ parchalanishidan 0.3 mol KCl hosil bo'lgan bo'lsa olingan $KClO_4$ massasini (g) aniqlang. J;12.45

7. Berilgan reaksiya tenglamasidagi o'ng va chap tomonlarni koeffitsentlar nisbatini toping?



8. 10.2 gr vodorod peroksidni neytral sharoitda kislorodgacha oksidlash uchun zarur bo'lgan kaliy permanganatning massasini (g) hisoblang. J; 31.6

9. Kaliy permanganat parchalanishidan olingan gaz ozonator orqali o'tkazilib kaliy yod eritmasiga shimdirilganda, 100 gr yod ajraldi. Reaksiyada qatnashgan kaliy permanganatning massasini (g) hisoblang. J; 170.

6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga doir testlar yechish va bilim ko'nikmalarini rivojlantirish.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqaradigan tarmog'idir.

Didaktikaning asosiy tushunchalari

1. Ta'lim
2. Bilim
3. Malaka
4. Ko'nikma
5. Ma'lumot

Bilim - obektiv borliqning inson ongida fan tushunchalari va faktlari shaklida aks etishi.

Malaka – olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash, namoyon qilish usullarini egallash.

Ko'nikma - avtomatlashgan darajadagi malaka, yuqori darajada takomillashish, rivojlanish.

Kimyodan masala va mashqlar bilan ishlashda ta'lim jarayoni quyidagi didaktik tamoyillarni rivojlanishiga imkon beradi.

1. O'quvchilarni mustaqilligi va faolligini ta'minlash.
2. Bilim va ko'nikmalarini mustaxkamlash.
3. Ta'limni hayot bilan bog'lash.
4. O'quvchilarda kasbiy ta'limni amalga oshirish va kasbga yo'naltirish [6].

Masalalar, o'quvchining o'quv materiallarini to'liq va chuqur o'zlashtirishga yordam bergan holda, ularni nazariya va qonunlarini mohiyatini yechishga, qoidalar, kimyoviy formulalar, kimyoviy reaksiya tenglamalar tuzish qoidalarini yodda saqlab qolishiga undaydi.

Kimyoviy hisob – kitob amallarini bajarish jarayonida o'quvchilar kimyoviy reaksiya elementlarning miqdoriy munosabati, kimyoviy jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari bilan tanishadilar.

Kimyoviy masala va mashqlarning ilmiy hamda uslubiy ahamiyati beqiyosdir. Amaliy mazmundagi kimyoviy masala va mashqlar ta'lim jarayonini faollashtiruvchi omillardan biri bo'lib, bunda o'quvchilarning mustaqil, o'zi ustida ishlash, fikrlash qobiliyatini oshirishga olib keladi . [15].

Amaliy mazmundagi masala va mashqlar o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlariga asoslangan xolda aqliy va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishi, rivojlantirib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

